

## **O'qituvchining pedagogik -diagnostik fikrlash jarayoni.**

**Maxamatova Feruza Safaraliyevna  
Jizzax davlat pedagogika instituti  
Pedagogika ta'lifi nazariyasi  
kafedrasi o'qituvchisi  
Xoliqova Xolida Abdulatif qizi  
Pedagogika nazariyasi va tarixi  
magistratura yo'nalishi  
2-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik diagnostik fikrlashi, kasbiy jarayonini boshlashdagi qiyinchiliklar, psixologik holatlar va ularning yechimlari haqida fikrlar, refleksiya hodisasi haqida yosh o'qituvchilar uchun mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'z:** diagnostika, pedagogik diagnostika, pedagogik diagnostika tarixi, refleksiya, yosh pedagog.

Hozirgi zamon jamiyatimiz hayotida pedagoglarga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Pedagog bo'lganda ham qanday pedagog?- ilg'or tajribalarga ega, o'z kasbining ustasi, pedagogik mahoratga ega, bilimli, fidokor, turli xil vaziyatlarni diagnoz qilib nostandard pedagogik yechimlar bilan chiqib ketadigan pedagog kerak. Pedagoglarga ham ma'lum bir talablar qo'yilmoqda , ularning orasida pedagogik diagnostika ayniqsa ajralib turadi. Xo'sh, bu nima degani?

Pedagogik diagnostika- o'quvchining o'zlashtirishi, o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganish natijasida ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalshtirish, pedagogik-psixologik profilaktika ishlarini samarali tashkil etishdir. Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim tarbiya jarayoni to'g'ri taxlil etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi. Pedagogik diagnostikaning tarixiga nazar tashlasak o'tgan asrlarda u faqat o'quvchi bilimini baholash orqali amalga oshirilgan . unga 1864-yilda AQSH olimlari D.Fisher va R.RESSLar asos solgan bo'lib, 1908-yil T.Stoun test metodini qo'llashi bilan mukammallashgan. Pedagogik diagnostikaning eng asosiy kritoriyalari:

1. haqqoniylik
2. ishonchlilik
- 3 .puxtalik.

O'qituvchi dars jarayonida har bir bolaga individual munosabatda bo'lishi, uning qobiliyatları, qiziqishlariga qarab talab va topshiriqlar bera olishi, o'qituvchining o'z o'quvchilarini kuzatib borishining o'ziyoq diagnostik faoliyat hisoblanadi. Diagnostik axborotlarni ma'lum ko'rsatkichlar (sinf, guruh,test, anketa,

va boshqalar) orqali yoki ularsiz oddiy kuzatish orqali ham yig'ish mumkin. Diagnostik faoliyatda quyidagi yo'nalishlar ajralib turadi:

1. solishtirish
2. bashorat qilish
3. interpratsiya ya'ni tatbiq qilish
4. diagnostik natijalarini o'quvchilarga yetkazish
5. turli diagnostik metodlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qilish.

Solishtirish- bu orqali bo'layotgan jarayonlar, voqeа hodisalar yoki shaxslar haqida aniq tafavvut va farqlarga ega bo'lamiz. Solishtirish diagnostik jarayonning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi.

O'qituvchining ijtimoiy-psixologik shakllanishida o'z ustida ishlashi murakkab tizimga ega. Bunda o'qituvchi ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikda ijodkorlik vazifalarini bajaradi. Olimlarning pedagogik mahorat tahliliga bu kabi chuqr yondashuvida barcha o'zaro bog'langan tizimlarni birdaniga qamrab olish amalda mumkin emas. Natijalar haddan ziyod katta hajmda, tarqoq bo'ladi, eng asosiysi, bu holda pedagogik mehnatning alohida bo'g'lnlari tahliliga chuqr yondashib bo'lmaydi. Umuman, pedagogik faoliyat doimiy ravishda o'z-o'zini tahlil etish, o'qituvchi refleksiyasi rivojlanishining tashabbuskori bo'la oladigan o'ziga xos "tezlashtiruvchi" rolini o'ynamog'i kerak.

I.G.Taturning ishi endigina o'z faoliyatini boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan tipik didaktik qiyinchiliklarga bag'ishlangan. U didaktik qiyinchiliklarga shunday ta'rif beradi: "Didaktik qiyinchiliklar – o'qituvchining ta'lim jarayonidagi qiyinchiligi bo'lib, uni hal qilish uchun shart-sharoitlar yo'qligi, keskinlik, beparvolik, o'z ishidan qoniqmaganlikning psixologik holati yoki aksincha, uni bartaraf qilish uchun sharoitlar ta'minlangani holda pedagogik mahoratni takomillashtirish, pedagogik "fikrlashni", malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydigan tetiklik, mobilizatsion tayyorgarlik, emotsiyal ko'tarinkilik holatining mavjud emasligi". Qiyinchiliklarning pozitiv roli uning indikatorlik (hisoblovchi) vazifasi bilan ham belgilanadi. "Indikatorlik vazifasi pedagogik mahoratning shakllanish jarayonini tormozlovchi ob'yektiv omillarni ajratadi, biroq u o'z-o'zini baholash tarzida subyektiv namoyon bo'lishi, shaxs uchun faoliyatning tobora qiyin jihatlarini aniqlab berishi mumkin".

Demak, o'z pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh o'qituvchi aslo jismonan va ruhan bo'shashishi, butunlay osoyishtalikka berilishi mumkin emas. Bu tuyg'u psixologiya fanida relaksatsiya deb atalib, kishilarning ish faoliyatida salbiy holatlariga beriladigan baho sifatida e'tirof etiladi. Y. S. Turbovskiyning fikricha, kasbiy takomillashuvning salbiy "energetik asosi" bo'lgan qoniqmaslik hissi, rivojlanishdan to'xtab qolganlikni chin ko'ngildan his etish sanaladi. "Buyruq, chaqiriq va nazorat emas, balki aynan o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmaslik

hissi, yuzaga kelgan pedagogik ziddiyatni boshqacha qilishga, buning uchun yangi vositalarni izlab topishga va uni o‘zlashtirishga ongli ravishda intilishini ta’minlaydi, qiyinchilik va ziddiyatlarni bartaraf etishdan, shaxsan o‘zi hal qilgan tadqiqotchilik vazifasidan ijodiy quvonish, qoniqish hissi – o‘qituvchi kasbiy komponentining asosiy manbasiga aylanadi, aniqrog‘i, aylanishi mumkin”.

Y.S.Turbovskiy tomonidan ishlab chiqilgan, pedagogik tajribani diagnostik o‘rganish nazariyasi va metodikasi har bir pedagogik jamoada va jamoaning har bir a’zosida pedagogik kasbiy faoliyat xususiyatlarini o‘rganishda yagona maqsad uchun harakatlanishga imkoniyat beradi, bu o‘z navbatida o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish mexanizmini yaratish uchun zamin hozirlaydi. Shu munosabat bilan pedagogik tashxis pedagogik faoliyatda erishiladigan yutuqlarni belgilovchi xarakter kasb etganida samarali bo‘lishini ta’kidlamoqchimiz. Olimlar tomonidan olib borilgan tajriba ishlari jarayonida shu narsa aniqlandiki, pedagogik mahoratni tadqiq qilishning belgilovchi xarakteri bevosita o‘qituvchining kasbiy refleksiyasiga tayanadi.

O‘qituvchining o‘z ichki imkoniyatlarini baholash diagnostika davomida har qanday holatda ham e’tiborga olinishi lozim, – deb ta’kidlaydi A. K. Markova, – unga ishonch bildirish kerak, uning kasbiy faoliyatiga bahoni oshirib yoki pasaytirib qo‘yish o‘qituvchi kasbiy rivojlanishini to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Ushbu o‘qituvchining individual rivojlanish mantig‘ini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchining yutuqlarini boshqa o‘qituvchilarning yutuqlari bilan emas, balki o‘zining oldingi yutuqlari bilan ham taqqoslash kerak .

Shaxsiy pedagogik faoliyatni o‘z-o‘zida tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi o‘zining ta’lim-tarbiyaviy faoliyati natijalari va xususiyatlarining holatini o‘rganadi, pedagogik ziddiyatlar o‘rtasidagi sabab va oqibatli bog‘lanishlarni aniqlaydi, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishni yanada takomillashtirish yo‘llarini belgilaydi, – deb ta’kidlaydi L. Y. Pleskach. Olimning fikriga ko‘ra, “Refleksiya – o‘z-o‘zini tahlil qilish bo‘lib, o‘z-o‘zicha belgilangan maqsadga erishish emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga, kasbiy jihatdan takomillashishga nisbatan rag‘batlantirishdir” .

Ta’kidlamoqchimizki, pedagogik tashxislash qayd qiluvchi emas, balki maqsad hosil qilishni belgilovchi (prognostik) xarakterga ega bo‘lganligida samarali bo‘ladi, Bu o‘qituvchining kasbiy refleksiysi rivojlanishi asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda aynan ta’lim-tarbiya jarayonida maqsad hosil qiluvchi tashxislash uning rivojlanish qobiliyatini ta’minlaydi.

O‘qituvchi tomonidan o‘z kasbiy faoliyati natijalarini anglab yetishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashgan usullarini izlash va ularni o‘zlashtirish zaruriyatini ta’minlaydi. Faoliyatni o‘zgartirish esa, faoliyat subyektining o‘zgarishiga olib keladi. O‘qituvchining analistik (tahlil qilish)

qobiliyatlari rivojlanishi jarayonida uning kasbiy refleksiyasi ham rivojlanadi, bu o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini ma’lum bir yo‘nalishga solib, uning shaxsiy ijodiy faolligini oshiradi. O‘qituvchining diagnostik faoliyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: -O‘quvchilarga bilim, ko’nikma, malakalarni (BKM) rivojlantirishga yordam beradi; - Turli xil yo‘nalishdagi rejalarни qanday qo’llash kerakligi bo‘yicha maslahat beradi; - Faol qayta aloqani ta’minlaydi; - Noan’anaviy usullar bilan o‘quvchi larning harakatlarini qo’llaydi va mustahkamlaydi; - O‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi; - O‘quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi; - O‘quvchilarning o ‘quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi. Kasbiy faoliyatni diagnostika qilish bosqichlari: 1. O‘z-o‘zmi tahlil qilish va zarur narsalarni anglash; 2. O‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash; 3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish. O‘qituvchining diagnostik faoliyatidagi maxsus kompetensiyalar: Faniga doir maxsus metodlarni bilish; - Ta’limni tabaqalashtirish; - O‘quvchilar ehtiyojini bilish; - Turli yosh xususiyatlarini bilish; O‘zbek olimi M. Ochilov “kompetensiya” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “kompetensiya-bilim, ko’nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko’rinishi1”. Kvalifikatsiya esa potensial faoliyatda bilim va ko’nikmaning namoyon bo’lishidir. Demak, kompetensiya ko’rinishlari umumiy va maxsus tarzda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining diagnostik faoliyati ko’rinishlari:

1. Dunyoqarash asnosida o‘zini anglash-o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog’liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof-muhitdagi voqeа va hodisalarni mohiyatini ko’ra oladi va tushunadi bunga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi.

2. Umummadaniy - milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo’lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlarga hurmat; ijtimoiy ko’nimlarga ega bo’lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini angalay olishi va o‘quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

3. O‘quv va bilish jarayoni - o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko’nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma’lumotga ega bo’lish - pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko’nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo’lishi, jamoada o’zigaxos o’rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat-oilaviy munosabatlar va ma’suliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko’nikmalarga ega bo’lish.

7. O'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi. Xissiyotini boshqarish. O'qituvchining didaktik kompetensiyasi. Didaktik kompetensiya – zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiya asosini tashkil etadi. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi: -O'qitish muhitini yaratish. - Mavzumazmunini yoritishni rejalashtirish -O'quv jarayoni boshqarish; - O'quvchilarning yutuqlari va nvojlanishlarini baholash; -O'quvchilarga motivatsiya berish va yordam ko'rsatish; -O'quvchilar bilimini anglash va ularni rivojlantirish Fanlar bo'yicha diagnostik faoliyati: Ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lismidir. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liqidir. Bugungi kunda pedagogi diagnostikada o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rniga baho berishda layf touching (ingliz tilida: life- hayot, couchingrejalashtirish) ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini to'g'ri rejalashtiradigan mutaxassis faoliyatidan foydalanilmoqda. Ma'lumki, o'qituvchi pedagogik jarayonni rejalashtiruvchisi, boshqaruvchisi hamda yo'naltiruvchisi hisoblanadi. Uning kasbiy, shaxsiy faoliyatini uyg'unlikda olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi guruh, sinfdagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berar ekan, shu bilan birgalikda jamiyat a'zosi bo'lgan o'z farzandlarini ham tarbiyalovchi ota-onasi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, o'z ish joyidagi faoliyati bilan birgalikda, oiladagi, jamoadagi ishlarini uyg'unlikda olib bonsh uchun kun tartibini to'g'ri rejalashtirib olishga zarurat tug'iladi.

Xulosa qilib aytganda har bir yosh pedagog pedagoglik kasbiga kirib kelar ekan , o'zining ustida ishlashi , yuqori natijalarga erishish uchun tinmay izlanishi, kasbiga fidokor, izlanuvchan, bilimli, pedagogic mahoratga ega bo'lishi lozim, har bir voqeя va jarayonni diognoz qila olishi va oldindan turli hil variantlarda ko'ra olishi lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korrektsiya. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009.
  2. Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korrektsiy. – T.: TDPU nashriyoti, 2018.
  3. Tolipova J.O. Pedagogik testologiya. – T.:, 2015.
- 5 Internet ma'lumotlari.